

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

«Янгиқўрғон туман халқ таълими бўлими мудири»



А.Қаюмов

«20» май 2022 й

## **БУЮРТМАЧИ:**

**« Янгиқўрғон туман халқ таълими бўлими »**

**Хўжа-Шўркент МФЙ-да жойлашган 58 – сонли умумий ўрта таълим мактабга мини футбол майдони қуриш ишларини**

## **ТАНЛОВ ХУЖЖАТЛАРИ**

**-Янгиқўрғон шаҳри -2022 йил**

# Танлов ҳужжатларининг мазмуни:

## I. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома

### ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА

Ушбу йўриқнома 2021 йил 22 апрелдаги № 684-сонли Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунига асосан ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2018 йил 26 майда № 3016-сон билан руйхатдан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Лойиҳа Бошқаруви Миллий Агентлигининг “Харид тартиб-тамоийиларини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисидаги” тартиби асосида ишлаб чиқилди.

### 1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ

1.1. **Хўжа-Шўркент МФЙ**-да жойлашган 58 – сонли умумий ўрта таълим мактабга мини футбол майдонни қуриш ишлари бўйича малакали мутахассисларга эга бўлган ташкилотлар жалб қилинади.

1.2. Танловнинг бошлагич қиймати – **589142738 (Беш юз саксон тўққиз миллион бир юз қирик икки минг етти юз ўттиз саккиз ) сўм.** Ушбу қийматдан ортиқ қийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва кўриб чиқилмайди.

Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиққан ташкилот билан шартнома тузилади.

1.3. Ишларни бажариш муддати шартнома имзоланган кундан бошлаб 5 кун.

1.4. Ишларни бошлаш муддати – буюртма берилган кундан бошлаб ҳисобланади.

### 2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. “Янгикўрғон туман халқ таълими бўлими” (бундан кейин-“Буюртмачи” деб аталади) -танлов ташкилотчиси ҳисобланади.

“Буюртмачи” манзили: Почта манзили 161200, Ўзбекистон Республикаси Наманган вилояти Янгикўрғон тумани Янгикўрғон шаҳари Наманган кўча 13 уй

2.2. Танлов “Буюртмачи” томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган харид комиссияси томонидан ўтказилади

2.3. Танлов “Янгикўрғон туман халқ таълими бўлими” биносида “Буюртмачи” томонидан тузилган харид комиссияси орқали қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.



### 3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1 Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, тажрибага эга малакали хизмат кўрсатиш бўйича белгиланган юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар ўзининг низоми ва лицензия асосида тақдим этган холда иштирок этиши мумкин.

3.2. Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қўйилади:

- Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг шахсий ИНН си ва паспорт нусхалари).
- Танловда қатнашиш кунда Давлат солиқ инспекциясидан солиқдан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома.
- Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги икки йиллик иш тажрибаси.
- Банк кафилиги бўлсин.
- Танлов иштирокчисининг молиявий кўрсаткичлари.
- Танлов иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари рўйхати.
- Объектнинг жамланма жадвали, объектда бажариладиган иш ҳажмлари рўйхати, объект қурилишининг шартномавий нархини белгилашда ишлатилган асосий нарх шакллантирувчи компонентларнинг нархлари.

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлиқ фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга руҳсат этилади.

3.4. Қўйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга руҳсат берилмайди:

- кайта ташкил этилиш (ажратилиши, қўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

**«ТАС ДИКЛАЙМАН»**  
**”Янгиқўрғон туман халқ таълими**  
**бўлими муdiri”**



А.Қаюмов

«20» Май 2022 й

**ТЕХНИК ТОПШИРИҚ**

№	Асосий маълумотлар	Бажарувчи
1	Қабул қилувчи ташкилот	Янгиқўрғон туман халқ таълими бўлими
2	Бузортмачи	Янгиқўрғон туман халқ таълими бўлими
3	Бузортма учун асос	Нуксон далолатнома, Лойиха смета ва экспертиза хулосаси
4	Объектнинг жойлашган манзили	Хўжа-Шўркент МФЙ-да жойлашган 58 – сонли умумий ўрта таълим мактаб
5	Қатнашувчи учун талаблар	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Танлов савдо иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг шахсий ИНН си ва Паспорт нусхалари).</li> <li>- Танловда қатнашиш кунда Давлат солиқ инспекциясидан, солиқлардан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома.</li> <li>- Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги икки йилликда қилинган иш таърибаси.</li> <li>- Банк қафиллиги бўлсин.</li> <li>- Танлов иштирокчисининг молиявий кўрсаткичлари.</li> <li>- Танлов иштирокчисининг ишларини бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари рўйхати.</li> <li>- Объектнинг жамланма жадвали, объектда бажариладиган иш ҳажмлари рўйхати, объект қурилишининг шартномавий нархини белгилашда ишлатилган асосий нарх шакллантирувчи компонентларнинг нархлари.</li> </ul>
6	Товар (иш хизмат маҳсулот) номи ва миқдори	Хўжа-Шўркент МФЙ-да жойлашган 58 – сонли умумий ўрта таълим мактабга мини футбол майдонини қуриш
7	Иш тури	Жорий таъмирлаш
8	Хизматларни бажариш муддати	Шартномаларни имзолаган кундан бошлаб 30 кун муддатда
9	Техника ҳавфсизлиги бўйича талаблар	Хизматларни бажариш жараёнида ёнгин, саноат ва техника ҳавфсизлиги қоидаларига тўла риоя қилиниши шарт.
10	Молияташтириш манбаи	Жамоатчилик фикри бўйича шакллантирилган маблағ ҳисобидан

Давлат харидлари ва шартнома  
 гуруҳи раҳбари:

Бош ҳисобчи:

Иқтисодчи:

Қурилиш ишлари бўйича мутахасис:

А.Абдуллаев

У.Исломов

У.Абдувалиев

Ш.Суфиконов





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail: namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana: 20-05-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 42860**

**Obyekt nomi** «Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Xo'jasho'rkent MFYda joylashgan 58-sonli umumta'lim maktabiga mini futbol maydoni qurish»

**Buyurtmachi** - Yangiqo'rg'on tumani Xalq ta'limi bo'limi

**Bosh loyihachi** - "ARCHPROJECT INDUSTRY" MCHJ

**Litsenziya** AL-000968 20.06.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

**Moliyalashtirish manbai** - Budget

**Bosh pudratchi** - Tanlov asosida

**Qurilish turi** Yangi qurilish

**Murojaat raqami:** № 42002

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Xalq deputatlari Yangiqo'rg'on tumani kengashining 18.04.2022 yildagi VI-37-47-6-90-K/22-sonli qarori.

1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va Yangiqo'rg'on tumani qurilish bo'limi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.3. "O'ZGASHKLITI" DUK Namangan filiali tomonidan bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

1.4. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 25.04.2022 yildagi 257264-sonli shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Mini futbol maydoni. Arxitektura va qurilish, elektr yoritish qismlari.

- Bosh reja.

- Smeta hujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

**3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.**

58-sonli umumta'lim maktabi Yangiqo'rg'on tumani Xo'jasho'rkent MFY hududida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa va shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes va suglinok (qatlam qalinligi 2,8-2,9 metrgacha) va 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 3,4-3,6 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi - II. Cho'kuvchanligi bo'yicha 1-guruh tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari aniqlanmagan. Yerni tuzilish reliefi - tekis.

### 3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

Futbol maydoni - to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 20,7m x 40,7m o'lchamdan iborat. Futbol maydonini arkasimon fermadan balandligi 10,6 metr bo'lgan metall konstruksiyalardan metallocherepitsa bilan qoplash loyihalangan.

#### Konstruktiv yechimi.

Poydevor - yaxlit tasmaimon va alohida quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Ustunlar - Ø40mm, Ø15mm metall quvurlardan.

Arka - Ø76mm, Ø32mm metall quvurlardan.

Tom - metall obreshyotka asosida metallocherepitsa qoplama.

Po'l - sun'iy chim.

### 4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

### 5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Bosh reja Yangiqo'rg'on tumani Qurilish bo'limi va Yangiqo'rg'on tumani 58-sonli umumta'lim maktabi bilan kelishilgan.

### 6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. "AS-1" varaqda injenerlik-geologiya sharoitlari to'g'risida ma'lumot - berildi.

6.1.2. Poydevor yechimi hisobi - takdim etildi.

6.1.3. Metall konstruksiyalar uchun hisobot - taqdim etildi, o'qlarga nisbatan bog'lanish masofalari - ko'rsatildi, metall konstruksiyalarni payvandlash va korroziyaga qarshi himoyalash haqida ma'lumot - berildi.

6.1.4. Bosh reja Yangiqo'rg'on tumani Qurilish bo'limi va Yangiqo'rg'on tumani 58-sonli umumta'lim maktabi bilan - kelishildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va buyurtmaching boshqa xarajatlari bilan 615246,000 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 17103,262 ming so'mga kamaytirilib, **598142,738 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	512058,333	ming so'm
--------------------------	------------	-----------



Asbob-uskunalar:	239,700	ming so'm
QQS:	76844,705	ming so'm
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	9000,000	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchiligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

## 7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Xo'jasho'rkent MFYda joylashgan 58-sonli umumta'lim maktabiga mini futbol maydoni qurish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich